



“Involta” Ilmiy Jurnalni

Vebsayt: <https://involta.uz/>

NODIRA G‘AZALLARIDA TALMEH MUMTOZ SHE‘RIY SAN‘ATI

Karomatov Akbar Abramot o‘g‘li

CHDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti 2-kurs talabasi.

Akbarkaromatov320@gmail.com

+99893 763 42 72

Umaraliyev Humoyun Abdulahad o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika instituti Gumanitar fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

khumoyunumaraliev@gmail.com

+998916660193

Ilmiy rahbar f.f.n,dotsent **T.SABITOVA**

Anotatsiya: Qo‘qon adabiy muhitining iste‘dodli vakilasi Nodira ijodida Talmeh mumtoz she‘riy san‘atining qo‘llash uslublari, maqsad-vazifalari.

Tayanch so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, insonparvarlik, xalq manfaatlari, ishqi majoz, ishqi ilohiy,

Qo‘qon adabiy muhitining iste‘dodli shoirlaridan biri Nodiradir. Shoiraning bir necha taxalluslari mavjud bo‘lib Nodira va Maknuna shular jumlasidan . Shoiraning asl ismi Komila bo‘lib o‘zga tillarda tahalluslari(Nodira va Maknuna)da ijod qilganligi ko‘zga tashlanadi. Nodira ijodining g‘oyalari ishq, muhabbat, xalq ahvolidan ogohlik, tasavvufiy tuyg‘ular madhi haqida bo‘lib, ularning ba‘zilarida tasavvufiy ma‘no yuklangan. Aziz Qayyum esa Nodira ijodining g‘oyalari haqida shunday fikirlarni aytib o‘tadi: “Nodira g‘azallarining asosiy mazmuni insonparvarlik, muhabbat va sadoqatni ulug‘lashdir.”[1,1-bet]. Foydalanilgan adabiyotlarga qaralsin). Nodira ijodi g‘oyalari rostdan ham insonparvarlik ruhiga monand va shu bilan birga ishqiy mavzulardagi g‘azallarida bu bo‘y ko‘rsatadi. Nodira g‘azallarida muhabbat mavzusi qalamga olinar ekan, uning turmush o‘rtog‘i shoh va shoir Umarxon g‘azallarida gavdalanadi. Nodira g‘azallarida qo‘llanilgan talmeh san‘ati ham uning turmush o‘rtog‘i, shoh va shoir Umarxonga ishora qiladi yoki ma‘shuqa ko‘nglini mashuqda ekanligini madh etadi. Shoira g‘azallaridan birida shunday jummlarni qo‘llaydi:

Furqat ichra tushdi savdoi Zulayxo boshima.,
 Qimmatini Yusuf baho topti xaridoring‘a ayt.
 Lutf etib so‘rsa meni holimni ul nomehribon,
 O‘ldi hijroningda deb yori vafodoring‘a ayt. [2,19-bet].

Iste‘dodli shoira g‘azalda o‘zining boshiga Zulayhoniki kabi ayriliq savdosi tushganligi, qimmatini Yusuf topganligini va xaridoriga o‘zi haqida xabar berishlarini so‘raydi. G‘azal davomida esa, agar yor lutf etib uning holini so‘rsa , uning hijronida vafot topganini ayting deya mumtoz she‘riy san‘at turi bo‘lmish talmehdan foydalanib go‘zal ishqiy g‘azal yaratadi. G‘azalda tilga olingan Yusuf va Zulayho sharq nazmida ko‘plab ishqiy dostonlar yaratilishi uchun mazmunan kuchli manba vazifasini o‘tagan qur‘oni karimning “Yusuf surasi”dan olingan. Yuqoridagi g‘azalda tilga olingan shaxslar talmeh she‘riy san‘atining bir necha qisimlaridan biri tarixiy-diniy qahramonni tilga olish bilan yuzaga chiqmoqda. Nodira esa “Yusuf (a,s) voqeasi”ning tarixiy-diniy qahramonlarining o‘tli muhabbatlari qiyosidan va

Zulayhoning Yusuf (a,s)ga bo‘lgan muhabbatlaridan badiiy va mazmuniy mukammallik yaratmoqda. Bunday holatdagi g‘azallarda so‘zlayotgan asl qahramonlarning his-tuyg‘ulari g‘azalda qo‘llanilgan talmeh san‘ati yordamida(talmeh san‘atidagi qahramonning muhabbati, jasorati, ishq, taqvosi kabi) qorishib mashuq yoki ma‘shuqaning his-tuyg‘ularini aniq ifodalaydi yoki to‘ldirib boyitadi. Bunga dalil sifatida esa “Ey mehri jamoling olam oro” g‘azalini ko‘rishimiz mumkin. Unda ishq-muhabbat qahramonlari tilga olinib, qahramonlarning muhabbat xislatlari mashuqa o‘zida ham borligini va nima uchun mashuqa yori, dilorosini unutishi kerak ekanligini qalamga oladi.

Ohim o‘qig‘a qadim kamondur

Bu o‘qni, nishonidur surayyo.

Majnun nega Layli tarkin etsun,

Yusufni unutmadi Zulayxo.

Qaydin seni Nodira unutsin,

Bu so‘z ne munosib, ey diloro.[3,6-bet]

Shoiraning ishqiy g‘azallarida ko‘proq Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho tilga olinadi. Ular talmeh sifatida qo‘llanilgan g‘azallarning bir qismi “ishqi majoz” va “ishqi boqiy” mazmunga ega. “Ishqi majoz”iy ruhdagi g‘azallarda qo‘llanilgan talmehlar mashuqa va mashuq(Farhod va Shirin, Layli va Majnun) tarzida juft holda qo‘llansa, “ishqi boqiy” mazmundagi g‘azallarda esa mashuq(Farhod,Majnun) tarzida qo‘llangani ko‘zga tashlanadi. Bu hol bizga Shoiraning Alisher Navoiy ijodidan yaqindan xabardorligi va “Xamsa” asarining ikkinchi va uchinchi dostonlari tasavvufiy qarashlarga boyligidan shoira ogohlighi haqida xabar beradi. Ishqi boqiy mazmundagi g‘azallardan biri “Farhod agar ursa menga lofi muhabbat” baytlari bilan boshlanuvchi g‘azaldir. Unda Farhodning so‘zlari muhabbat haqidagi lof ekanligi va agarda shoiraning g‘ayrati, ishq ohi unda bo‘lsa edi, Farhod tog‘ni tesha bilan yormas balki, bir oh bilan suv qilishi tilga olinadi. Shoira esa g‘azal davomida Majnun, Yusuf va Zulayho kabi badiiy-tarixiy qahramonlarni qo‘llaydi. Zulayhoda, agarda shoiraning zarracha ishq bo‘lganda,

Zulayho Yusufning ayrilig‘idan salomatlik topmasligini ham qalamga olib o‘tadi. G‘azalning bu ruhda ekanligi, albatta ishq boqiyga mansub ekanligidan xabar beradi.

Farhod agar ursa menga lofi muhabbat,

Bir oh ila aylarman uni dog‘i xijolat.

Harchandki bemori g‘ami ishq edi Majnun,

Dardimni ko‘rib tishladi angishti nadomat.

Farhodda bo‘lsaydi mening g‘ayrati ishqim,

Bir oh ila aylar edi ul tog‘ni g‘orat.

Majnunda agar bo‘lsa edi sabru tahammul,

Qilmasmu edi men kabi shahr ichra iqomat.

Gar bo‘lsa Zulayxoda mening zarracha ishqim,.

Qolmas edi Yusufni firoqida salomat.

Ishq ofatiga tog‘ tahammul qila olmas,

Man manki qilurman bu g‘amu dardig‘a toqat.

Dardu alamu g‘ussaki hajrida chekarman

Bu mehnatu g‘am kimdadur, ey ahli muhabbat.

Yuzdin biri Majnunda agar bo‘lsa g‘amimni,

Bir oh ila olamg‘a solur sho‘ri qiyomat.

Har holda, ey Nodira, shukr ayla xudog‘a,

Kim berdi senga ishq muhabbat ila davlat. [4,4-3-bet].

Talmeh san‘ati uchun asos bo‘luvchi qahramon yoki voqeaning ma‘lum qismini g‘azal uchun badiiy kompozitsiya qilib olish g‘azalning ruhini belgilashda ham ahamiyatlidir. Yuqorida keltirilgan talmeh san‘ati bunga yorqin misoldir. G‘azalda keltirilgan qahramonlarning ishq yo‘lidagi holatlari tilga olinib Farhodning tog‘ yorishi, Majnunning Layli ishqida junun bo‘lib sahrodan qo‘nim topishi kabi voqealar tilga olinib shu asos bilan talmeh yaratilgani g‘azalning ruhi ishqiy ekanligidan darak beradi. Shu bilan birga g‘azalning “ishqi boqiy” va “ishqi majoziy” ekanligini ham farqlab beradi. Shoiraning tasavvufiy ishq va ijtimoiy

mavzularda bitilgan g'azallari ham mavjud. Ularda q'llanilgan talmeh mumtoz she'riy san'ati obyektlari ishqiy mavzudan yiroq bo'lgan obrazlar – ulug' payg'ambarlar va podshohlardir.

Ey xusho, shisha aro obi hayoti hukamo, Kim oning har kishi aytsa bo'lur
Xizrnamo. [5, 8-7-bet]

**

Boda mushtoqiga lutf ayla, qadah tut, soqiy, Yo'qsa Jamshidg'a ham aylamadi jom vafo. [6, 8-7-bet]

Yuqorida keltirilgan g'azal tasavvufiy ishq haqida bo'lib, unda hayotiy va tasavvufiy qarashlar qorishgan holatda namoyon bo'ladi. G'azal davomida tasavvufiy istilohlar ham uchraydi: "Zohid, boda, ishq ahli, soqiy, qadah istilohlari ham qo'llanilgan. G'azal so'ngida Nodira muhabbat jomidan mast bo'lib, ishq namozini ado etishni istaydi. Bu g'azalning so'ngi bayti ham tasavvufiy mazmun kasb etayotganiga bir dalildir. Unda qo'llanilgan talmehlarning uslubiyati esa, shundan iboratki, Xizr payg'ambar(a,s)ning umri boqiyliigi va Jamshid podshohning davlatmandligi edi. G'azalning tub ma'nosiga kelishda talmehlar ko'mak bergan holda shunday mazmun chiqadi: Ishqni ixtiyor et, bo'lmasa boqgin Jamshid podshohga hatto, jom vafo qilmadi deya go'zal g'oyani qalamga oladi. Nodira ijodida insonparvarlik, ishq-muhabbat yuqori o'rinlarda turishini g'azallari tahlilidan ko'rishimiz mumkin. Shu bois ham shoira g'azallarida Yusuf va Zulayho, Vomiq-u Uzro, Farhod va Shirin, Layli va Majnun ishq qahramonlari qatorida, Xizr(a,s), Iso Masih kabi payg'ambarlar va Jamshid podshoh ko'p o'rinlarda uchraydi. Ular turli uslibiy ma'nolar o'tagan holatda talmeh san'atini yuzaga chiqaradi. Ammo, tasavvufiy ishq ruhidagi g'azallarda shoira albatta, Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi qahramonlarni talmehga oladi. G'azal ijtimoiy ruhda bitilgan bo'lsa, Xizr(a,s), Iso Masih kabi payg'ambarlar va Jamshid podshoh ko'p o'rinlarda uchraydi. Bularga misollar sifatida quyidagi baytlarni keltirish mumkin:

Ul zulfi dil oviz muanbar girihidin

<p>Har kimni tushib boshig‘a bir o‘zgacha savdo. Har sabzai sunbulki, bu gulshanda chekar bosh Muyi sari Majnunduru, yo turrai Laylo. [5-bet]</p>	
<p>Qading misrai sho‘xu barxastadur, Bo‘lib husi devonidin muntaxab. Meni zor Farhod-u Majnunnajod, Erur yor Shirin-u Layli nasab. Na mahfilda shahdu shakar yolading, Ki bir-birga chaspondur ul ikki lab. [13-bet]</p>	
<p>Zulayxo mushtaridur ganj gavhar birla vaslig‘a, ahlin Yusufdek jamolingg‘a xaridor et. [18-bet]</p>	Jahon
<p>Gar zamone dahr g‘avg‘osidin istarsen faror, Sokini mayxona bo‘l, bir go‘shada orom tut. Bo‘lmag‘il Farhod-u Majnundek jahon afsonasi, aro, ey Nodira, oyini nangu nom tut. [21-22-bet]</p>	Ishq
<p>Sayd etar bir damda olam ahlinn murg‘i dilin, Qoshlarin shohin etib, ko‘zlarni shahboz aylagach. Vomiq-u Farhod-u Majnundin muqaddam bildi yor, Nodira ishqini oshiqlikda mumtoz aylagach. [30-bet]</p>	
<p>Qani Farhod ila Majnun nishoni. Qani Shirin-u Layli aylag‘il yod. Aloyiq barcha zanjiri ajaldur, Qo‘yar andog‘ki domi hiyla sayyod. [40-bet]</p>	
<p>Zohid, meni devonaga ko‘rguzma taarruz, Majnunni qachon oqilu farzona qilur bahs. Kuymoq erur oshiq ila ma‘shuq tariqi, Bir mahfil aro sham‘ ila parvona qilur bahs.[28-bet]</p>	
<p>Lablaringdur Masihu, Xizr labing,</p>	

Sendin istar hayot **Xizru, Masih.**

Kufr islom eliga zulfingdin

Aqlu zinnoru halqau, tasbih. [34-bet]

Obod o‘la, ey Nodira, iqlimi tajammul,

Jamshidi zamon, xisravi Farg‘ona salomat. [19-bet]

[7, 5-40-betlar]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. NODIRA (G‘azallar). O‘zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti Toshkent — 1958
2. O‘ZBEK KLASSIKLARI KUTUBXONASI, NODIRA (G‘azallar)
www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. O‘ZBEK KLASSIKLARI KUTUBXONASI, NODIRA (G‘azallar)
www.ziyouz.com kutubxonasi
4. O‘ZBEK KLASSIKLARI KUTUBXONASI, NODIRA (G‘azallar)
www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. O‘ZBEK KLASSIKLARI KUTUBXONASI, NODIRA (G‘azallar)
www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. O‘ZBEK KLASSIKLARI KUTUBXONASI, NODIRA (G‘azallar)
www.ziyouz.com kutubxonasi.
7. (Yuqoridagi adabiot). O‘ZBEK KLASSIKLARI KUTUBXONASI, NODIRA (G‘azallar) www.ziyouz.com kutubxonasi